

BIOGRAFIK METOD

Ibrohimova Yulduzxon

Fargʻona davlat universiteti

Filologiya fakulteti oʻzbek tili yoʻnalishi 3-bosqich 21.75-guruh talabasi

Annotatsiya: badiiy asar, biografik metod, Sharl Ogyusten Sent-Byov, Yuriy Borev, tahlil, "Adabiy portretlar", "Boburnoma"

Badiiy asar maʼlum hissiy va fikriy mazmun hamda qarashlarning obrazli va estetik qimmatga ega yoʻsindagi ifodasidir. Badiiy asarni tahlil qilishga qiziqishlar juda qadimdan boshlangan. Har bir asarni ilmiy tahlil qilishda turli olimlar undagi barcha shakliy va mazmuniy xususiyatlarga toʻxtalib, ularning estetik vazifasi qanchalik oʻrinlatilganini asoslash, adabiy yaratilgan oldin mavjud tajribalardan qanday foydalanganini, tasvir-tajribasiga qanday yangiliklar kiritilganini qayd etish, asarning originalligini taʼminlagan omillar nimalardan iborat ekanini matnga tayangan holda koʻrsatib berishga turlicha yondashuvlar zarur boʻladi. Asar tahlili uchun moʻljallangan bu yondashuvlar metodlar deb ataladi. Adabiyotshunoslikda sotsiologik, biografik, struktural, formal, psixologik, lingvistik va germeneytik kabi metodlar farqlanib, har birining oʻziga yarasha alohida oʻrni va ahamiyati mavjud. Kitobxon badiiy asar tahlili uchun qay bir metodni tanlamasin, baribir maʼlum jihatlari bilan bu metodlar bir-birini ham taqozo etadi, ham bir-biridan farqlanib turadi. Ushbu maqolamizda esa biografik metod haqida oʻz fikrlamizni bildiramiz.

Yozuvchi psixobiografiyasi qaysidir maʼnoda uning badiiy asarlaridan voqea-hodisalar bayoni, yaratgan obrazlari tizimida oʻz ifodasini topadi. Badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyadini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metod yozuvchi va badiiy asar juftligiga asoslanib ish koʻrish uslubidir. Yozuvchining shaxsiy hayoti, yashagan davri va muhiti, qiziqishlari, tarixiy-individual xususiyatlari masalalariga jiddiy eʼtibor qaratish aynan biografik metod asosida tahlil qilish hisoblanadi. Qisqacha Yuriy Borev fikri bilan biografik metodga tarʼif beradigan boʻlsak: "...badiiy asarni yozuvchi shaxsi orqali oʻqish uslubidir."

Adabiyotshunoslikda biografik metod tamoyillarining ishlab chiqilishi va umuman, shu metod asoschisi sifatida fransuz tanqidchisi va shoiri Sharl Ogyusten Sent-Byovga qarash boʻladi. Uning "Adabiy portretlar" kitobi aynan biografik metod tamoyillari asosida yozilgan. Bu asarda XVI asr poeziyasi, Kornel, Rasin, Molyer, Lafonten ijod; XVIII asr yozuvchilaridan Volter, Didro, Bomarshe, Russo ijodini hamda XIX asrdan Shatobrian, Gyugo, Myusse, Jorj Sand va Flober ijodini tadqiq qilgan. U adiblarning biografiyasi va ijodini bir butunlikda talqin etadi. Bu haqda Sent-Byov "Adabiy portretlar" toʻplamida: "Meni har doim xatlar, suhbatlar, fikrlar, xarakterlarning oʻziga xos fazilatlarini, maʼnaviy-ruhiy qiyofasi, bir soʻz bilan aytganda ---- mashhur yozuvchilarning biografiyasini oʻrganish oʻziga jalb etib keladi, " ---- deb aytib oʻtadi.

Ijodkor hayotida yuz bergan yoki oʻz koʻzi bilan koʻrib guvoh boʻlgan ayrim voqea-hodisalar asarda oʻz aksini topishi biografik tahlil uchun xos. Ushbu metod asosida oʻzbek adabiyotidagi badiiy namunalardan bir qanchasini tahlilga tortishimiz mumkin. Masalan, Abdulla Qahhorning "Oʻtmishdan ertaklar", Oybekning "Bolalik", Oʻtkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" kabi qissalarini yoxud oʻzbek adabiyotining durdona asarlaridan biri hisoblangan "Boburnoma" asari hamda koʻplab bir qator namunalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Biografik metod asosida tahlil qilish oʻquvchi yoki kitobxonda ijodkor tarjimai holi haqida ham koʻplab maʼlumot bilishga chorlaydi, yozuvchining hayoti asosida asarini yoki asari asosida uning hayotini tahlil qilish mumkinligini koʻrsatadi. Bu metodga



tayanib ish ko‘rilganda, kitobxon badiiy namunadan kengroq ma’lumotlar oladi. Chunki yozuvchi qaysi davrda yashagani ma’lum bo‘lsa, biografik metod asosida uning asari tahlil qilinsa, ijodkor hayotida qanday voqea-hodisalar yuz bergani, yashagan davri, muhiti, ijtimoiy-siyosiy vaziyat yoki o‘sha davrdagi ilm-u fan, adabiyot, san’atga munosabat haqida bilib olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2018